

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 447,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 18,4 mln. AQSh dollariga yoki 96,0 % ni tashkil etdi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-sentabr oylari, ming AQSh dollari)**

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	466 070,6	447 652,4	96,0 %	x
Eksport 	297 503,9	274 906,2	92,4 %	100,0
 tovarlar	295 507,1	271 509,6	91,9	98,8
 xizmatlar	1 996,8	3 396,6	170,1	1,2
 oltin	-	-	-	-
Import 	168 566,7	172 746,2	102,5 %	100,0
 tovarlar	159 572,7	154 630,6	96,9	89,5
 xizmatlar	8 994,0	18 115,6	201,4	10,5
 Saldo	128 937,2	102 160,0	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 274,9 mln. AQSh dollariga (7,6 % ga kamaydi) va import hajmi 172,7 mln. AQSh dollariga (2,5 % ga ko'paydi) tashkil etdi. Hisobot davrida 102,2 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-sentabr oylari, mln. AQSh dollari)**



Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (18,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (29,6 %), Rossiya Federatsiyasida (17,7 %), Latviyada (7,1 %), Qozog'istonda (9,2 %), Koreya Respublikasi (6,5 %) va Afg'onistonda (0,8 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-sentabr oylari, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (80,9 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (132,6 mln. AQSh dollari), Rossiya (79,1 mln. AQSh dollari) va Latviya (31,6 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr oylari, ming. AQSh dollari)

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Turkiya	47782,4	79089,1	80894,9
Eksport	45729,0	67953,5	74318,8
Import	2053,4	11135,6	6576,1
Saldo	43675,6	56817,9	67742,7
Xitoy Xalq Respublikasi	106777,8	111581,5	132614,0
Eksport	78281,7	83831	70465,2
Import	28496,1	27750,5	62148,8
Saldo	49785,6	56080,5	8316,4
Rossiya Federasiyasi	80274,2	83874,3	79074,7
Eksport	51289,0	54518,9	39322,7
Import	28985,2	29355,4	39752,0
Saldo	22303,8	25163,5	-429,3
Latviya	19773,2	23906,3	31588,4
Eksport	16042,4	21426	30741
Import	3730,8	2480,3	847,4
Saldo	12311,6	18945,7	29893,6
Qozog'iston	38522,6	44838,9	41051,5
Eksport	26559,2	28834,2	26459,0
Import	11963,4	16004,7	14592,5
Saldo	14595,8	12829,5	11866,5
Koreya Respublikasi	27480,2	22422,1	29001,4
Eksport	5149,3	3498,4	9212,3
Import	22330,9	18923,7	19789,1
Saldo	-17181,6	-15425,3	-10576,8



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Soedinennoe Korolevstvo	1398,4	2563,6	6216,1
Eksport		1723,2	3671,6
Import	1398,4	840,4	2544,5
Saldo	-1398,4	882,8	1127,1
Afg'oniston	2681,8	3209,2	3556,5
Eksport	2681,8	3209,2	3556,5
Import			
Saldo	2681,8	3209,2	3556,5
Qirg'iz Respublikasi	3321,1	7051,2	5211,0
Eksport	1861,7	3526,2	2501,9
Import	1459,4	3525,0	2709,1
Saldo	402,3	1,2	-207,2
Gruziya	853,8	1233,2	2537,4
Eksport	816,3	1233,2	2458,6
Import	37,5		78,8
Saldo	778,8	1233,2	2379,8
Tojikiston	4701,8	2276,9	2116,7
Eksport	4701,8	2276,9	2116,7
Import			
Saldo	4701,8	2276,9	2116,7
Ukraina	6133,6	11755,4	1932,0
Eksport	5430,1	11000,2	1793,1
Import	703,5	755,2	138,9
Saldo	4726,6	10245,0	1654,2
Fransiya	386,1	2375,9	1627,7
Eksport	140,4	1449,7	1214,1
Import	245,7	926,2	413,6



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Saldo	-105,3	523,5	800,5
Turkmaniston	2318,7	3011,9	1897,3
Eksport	578,9	800,2	1060,7
Import	1739,8	2211,7	836,6
Saldo	-1160,9	-1411,5	224,1
Litva	657,5	3834,8	3806,0
Eksport	0,1	2163,7	875,3
Import	657,4	1671,1	2930,7
Saldo	-657,3	492,6	-2055,4
Ozarbajjon	66,9	345,7	659,4
Eksport		345,7	659,4
Import	66,9		
Saldo	-66,9	345,7	659,4
Iron	1860,0	4925,8	1424,5
Eksport		1944,3	576,1
Import	1860,0	2981,5	848,4
Saldo	-1860,0	-1037,2	-272,3
Boshqa davlat	1574,3	189,6	464,8
Eksport	1574,3	189,6	464,8
Import			
Saldo	1574,3	189,6	464,8
Portugaliya	0,0	98,1	449,2
Eksport		98,1	449,2
Import			
Saldo	0,0	98,1	449,2
Germaniya	1569,5	7024,5	1355,5
Eksport	427,4	639,5	406,9
Import	1142,1	6385,0	948,6
Saldo	-714,7	-5745,5	-541,7

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 30,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 12,6 % ga kamaydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr oylari, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan 0,3 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 70,0 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2022-yil yanvar-sentabr oylari)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 151 tani tashkil etib, ular tomonidan 274,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 92,4 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,0 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (70,6 %), sanoat tovarlari (12,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (9,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-sentabr oylari, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar-sentabr)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	274 906,2	92,4	100,0	74 017,1	73,0	100,0	200 889,1	102,4	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14 489,0	106,4	5,3	5 274,7	93,2	7,1	9 214,2	101,7	4,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0		0,0	0,0		-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	25 956,1	60,7	9,4	906,3	25,8	1,2	25 049,8	88,8	12,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0		0,0	0,0		0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-		-	-		-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	194 187,9	96,9	70,6	54 614,2	42,5	73,8	139 573,7	105,3	69,5
Sanoat tovarlari	35 003,0	94,5	12,7	10 363,0	97,0	14,0	24 640,0	104,0	12,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	23,7	40,8	0,0	23,7	-	-		-	-
Turli xil tayyor buyumlar	1 849,9	368,3	0,7	1 849,9	1 078,7	2,5		0,0	0,0
Xizmatlar	3 396,6	170,1	1,2	985,2	41,1	1,3	2 411,4	809,4	1,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabr oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning yanvar-sentabrga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-sentabr oylari, % da)

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,4	4,6	5,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,5	14,4	9,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,4	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	69,1	67,3	70,6
Sanoat tovarlari	10,2	12,5	12,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,7	0,2	0,7
Xizmatlar	1,0	0,7	1,2



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2022-yil yanvar-sentabr)**

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	10 932,0	104,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 483,1	118,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,1	3,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	34,9	77,2
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	20,3	16,9 b
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	13,6	544,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar		
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	18 055,8	62,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 407,4	10,4
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	100,1	182,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	6 392,7	13,8 b
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar		
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlikmoylarivayog'lari (xom, tozalangan,yokifraktsiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	252,2	294,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	193 789,5	96,9
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	125,9	76,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	0,1	1,6
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	20,4	51,0 b




**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	26 139,7	78,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	21,6	91,9
Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar	206,4	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar		
Teri, boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar	12,7	44,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan, metall bo'lmagan minerallardan olingan mahsulotlar	8 622,7	246,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	10,3	12,9 b
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1,0	30,3
Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12,5	103,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	66,6	86,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	876,7	214,0
Kiyim-kechaklarva kiyim-kechak anjomlari	899,0	64,2 b
Santexnika, isitish va yoritish uskunolari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan		
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	7,2	
Поебзан	0,3	
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	732,9	150,3
Transport xizmatlari	562,5	48,3
Safarlar (turizm)	166,5	48,4
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	1 934,7	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yilning yanvar-sentabrga 36,2 % dan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 26,9 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 73,1 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr oylari, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (27,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 25,6 % i), Rossiya Federatsiyasi (14,3 %), Latviya (11,2 %), Qozog'iston (9,6 %), Koreya Respublikasi (3,4 %) va Afg'oniston (1,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,4 foizni tashkil etmoqda.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022-yil yanvar-sentabr oylari,% da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 49 davlatdan 54 davlatni tashkil etdi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI**
(2022- yil yanvar-sentabr oylari, ming AQSh dollari)

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Turkiya	67953,5	74318,8	148,6	109,4	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	83831,0	70465,2	107,1	84,1	1	2
Rossiya	54518,9	39322,7	106,3	72,1	3	3
Latviya	21426,0	30741,0	133,6	143,5	5	4
Qozog'iston	28834,2	26459,0	108,6	91,8	4	5
Koreya Respublikasi	3498,4	9212,3	67,9	263,3	8	6
Soedinennoe Korolevstvo	1723,2	3671,6		213,1	13	7
Afg'oniston	3209,2	3556,5	119,7	110,8	9	8
Qirg'iz Respublikasi	3526,2	2501,9	189,4	71,0	7	9
Gruziya	1233,2	2458,6	151,1	199,4	17	10
Tojikiston	2276,9	2116,7	48,4	93,0	10	11
Ukraina	11000,2	1793,1	202,6	16,3	6	12
Fransiya	1449,7	1214,1	1032,3	83,8	15	13
Turkmaniston	800,2	1060,7	138,2	132,6	18	14
Litva	2163,7	875,3	222695 3,5	40,5	11	15
Ozərbayjon	345,7	659,4		190,7	24	16
Kanada		612,0				18
Iron	1944,3	576,1		29,6	12	19

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr oylari, ming AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Jami eksport	83 831,0	70 465,2	67 953,5	74 318,8	54 518,9	39 322,7	21 426,0	30 741,0
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	753,2	1 640,8	1032,6	1499,1	278,2	788,2	51,0	64,0
Ichimliklar va tamaki								
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	25282,3	20 303,3	8302,5	262,0	2471,9	598,2	161,6	
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar								
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar								
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	37156,9	38 990,7	52784,1	62185,0	45706,3	30916,0	21213,4	30677,0
Sanoat tovarlari	20483,3	7593,7	5833,1	10364,0	5013,9	6273,4		
Mashinalar va transport asbob-uskunolari					3,3			
Turli xil tayyor buyumlar	153,5				4,9	147,6		
Xizmatlar	1,8	1936,7	1,2	8,7	1039,9	599,3	0,0	0,1

Xizmatlar eksporti hajmi 3 396,6 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,2 % ulishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ulishiga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (4,9 %), transport (16,6 %), qurilish (57,0 %) hamda moliyaviy xizmatlar (21,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(2022-yil yanvar-sentabr)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 172,7 mln. AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (37,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,7 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (9,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr oylari, ulushi, % da)**



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 172,7 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 102,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 18,1 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar-sentabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	172746,3	102,5	100,0	60 339,6	115,1	100,0	112 406,6	96,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18 430,1	93,1	10,7	16 243,8	108,1	26,9	2 186,3	45,8	1,9
Ichimliklar va tamaki	69,9	-	-	69,9	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15 020,2	129,0	8,7	14 766,1	127,4	24,5	254,1	495,9	0,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	12 376,4	90,6	7,2	5 799,9	87,4	9,6	6 576,5	93,6	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4 010,5	83,4	2,3	4 010,5	83,4	6,6	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16 220,3	69,6	9,4	1 259,5	60,2	2,1	14 960,8	70,5	13,3
Sanoat tovarlari	19 433,9	172,2	11,2	16 023,9	230,1	26,6	3 410,1	78,9	3,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	65 400,3	94,4	37,9	957,5	53,8	1,6	64 442,9	95,5	57,3
Turli xil tayyor buyumlar	3 668,8	63,2	2,1	713,0	344,8	1,2	2 955,8	52,8	2,6
Xizmatlar	18 115,6	201,4	10,5	495,4	14,9	0,8	17 620,1	311,0	15,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning mos davriga

nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi 6,8 % dan 8,7 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunolari 41,8 % dan 37,9 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 3,4 % dan 2,1 % ga kamaydi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,4	11,7	10,7
Ichimliklar va tamaki			-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,9	6,9	8,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shungao'xshash materiallar	5,6	8,1	7,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,8	2,9	2,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16,7	13,8	9,4
Sanoat tovarlari	6,0	6,7	11,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	33,6	41,1	37,9
Turli xil tayyor buyumlar	7,1	3,4	2,1
Xizmatlar	4,9	5,3	10,5

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning yanvar-sentabrga nisbatan jami importdagi ulushi 10,5 % dan 5,3 % ni tashkil etdi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2022- yil yanvar-sentabr oylari, ming AQSH. doll.)**



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2022-yil yanvar-sentabr)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	12 163,9	110,4
Tirik hayvonlar	2 339,6	40,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	148,0	183,4
Sabzavotlar va mevalar	483,7	726,3
Go'sht va go'sht mahsulotlari	182,7	45,8
Shakar mahsulotlari va asal		
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	314,9	51,6
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqa simonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar	919,3	432,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 147,7	79,8
Hayvonlar uchun ozuqa	730,4	700,3
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	69,9	-
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'identashqari		



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

Probka va yog'och-taxtalar	14 635,3	150,8
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	89,1	96,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	92,4	5,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	6,0	75,0
To'qimachilik tolalari	59,8	
Qog'oz va makulatura		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	137,6	
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9 814,1	91,7
Ko'mir, koks va briketlar	2 562,4	86,9
Tabiiy yoki sun'iy gaz		
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari		
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	4 010,5	83,6
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 275,7	176,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	125,4	143,0
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 909,9	49,7
Organik kimyo moddalari	5 895,4	116,6
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	793,6	68,3
Noorganik kimyo moddalari	28,2	21,7
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	14,1	124,8
O'g'itlar	174,3	81,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3,8	-
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 383,2	134,2
Rezina buyumlari	169,4	42,1
Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar	640,2	71,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	560,0	487,4
Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar.	1 036,3	121,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	15 567,7	195,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	57,3	163,2
Rangli metallar		




Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	553,5	6,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46 162,1	161,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	9 900,8	68,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	1 809,9	89,1
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	972,3	13,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	1 385,3	490,7
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	483,7	865,3
Avtomobillar	4 132,7	86,1
Boshqa transport vositalari		
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	760,8	297,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 661,3	72,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 047,5	32,8
Poyabzal	1,2	120,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6,9	21,2
Mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	190,4	656,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	0,7	9,2
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	16 388,5	347,5
Transport xizmatlari	204,1	156,3
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	780,2	22,4
Moliyaviy xizmatlar	742,7	111,3

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari (72,6 % ga pasaygan), Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari (32,8 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi kamayishiga esa, Tirik hayvonlar (40,1 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr oylari, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 36,0 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (23,0 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 49 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-sentabr oylari)

Davlat nomi	Ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	27750,5	62148,8	97,4	224,0	2	1
Rossiya Federatsiyasi	29355,4	39752,0	101,3	135,4	1	2
Koreya Respublikasi	18923,7	19789,1	84,7	104,6	3	3
Qozog'iston	16004,7	14592,5	133,8	91,2	4	4
Turkiya	11135,6	6576,1	542,3	59,1	5	5
BAA	4958,9	4749,4	1216,7	95,8	11	6
Litva	1671,1	2930,7	254,2	175,4	17	7
Qirg'iz Respublikasi	3525,0	2709,1	241,5	76,9	12	8
Soedinennoe Korolevstvo	840,4	2544,5	60,1	302,8	20	9
Belarus	581,2	2290,4	57,1	394,1	27	10
Qatar		2057,9	-	-		11
Yaponiya	303,6	1152,1	55,3	18,2	32	12
Polsha	836,6	961,3	58,2	114,9	21	13
Germaniya	6385,0	948,6	559,0	14,9	9	14
Iron	2981,5	848,4	160,3	28,5	13	15
Latviya	2480,3	847,4	66,5	34,2	14	16
Turkmaniston	2211,7	836,6	127,1	37,8	15	17
Estoniya	97,5	789,6	247,3	809,5	37	18
Niderlandiya	5426,4	782,3	1110,1	14,4	10	19
Ruminiya	1353,3	697,3	65,2	51,5	18	20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston

Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Litva va BAA Respublikasi) jami importning 87,1 % ulushini tashkil qildi, bu 150,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilanganisari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moshina va uskunalar, shuningdek, ularning

qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2022-yil yanvar-sentabr oylari, ulushi, % da)**



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 18 115,6 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 10,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (90,5 %), moliyaviy xizmatlar (4,1 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (4,3 %) va transport xizmatlari (1,1 %) tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06**